

O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI
XABARLARI, 2025, [1/9]
ISSN 2181-7324



TARIX
<http://journals.nuu.uz>
Social sciences

UO'K:902,2

Lobar XO'JAYEVA,
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: lobarxujaye7@gmail.com

Dotsent F.Fayziyeva taqrizi ostida

NAVOIY VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINI TADQIQ ETILISHI MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqolada Navoiy viloyatidagi arxeologik yodgorliklarini tadqiq etilishi masalalari hamda ro'yxatga olingan arxeologik yodgorliklarning paydo bo'lishi, qaysi olimlar tomonidan o'rganilganligi va bugungi kunda ularning davlat muhofazasiga olinishi holati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Arxeologik yodgorliklar, ochiq osmon ostidagi muzey, shaxta, xaroba, "Avesto", yodgorlik, oromiy, Abu Muslim tepa, Shahri vayron, O'ktamsavobtepa, Mang'itpepa, Oqsochtepa, Chordara, Umaramintepa, qal'a, manzilgoh, toshga, sopolga, charmga, yog'ochga, metalga, qog'oz, arxeologik, ibodatxona.

QUESTIONS ON THE RESEARCH OF ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS IN THE TERRITORY OF THE NAVAI REGION

Annotation

This article highlights the issues of studying the archaeological sites of the Navoi region, as well as the origin of registered archaeological sites, which scientists have studied them and are currently under state protection.

Key words: Hill, ruin, "Avesta", monument, Aramaic, Abu Muslim hill, Oktamsavobtepa, Mangitpepa, Aksochtepa, Chordara, Umaramintepa, fortress, settlement, stone, ceramic, leather, wood, metal, paper, archaeological, temple.

ВОПРОСЫ ПО ИССЛЕДОВАНИЮ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ НА ТЕРРИТОРИИ НАВАЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье освещаются вопросы изучения археологических памятников Навоийской области, а также о возникновении зарегистрированных археологических памятников, о том, какими учеными они были изучены и в настоящее время находятся под охраной государства.

Ключевые слова: Холм, руины, «Авеста», памятник, арамейский, холм Абу Муслима, Шахри-хир, Октамасавобтепа, Мангиттепа, Аксочтепа, Чордара, Умараминтепа, крепость, поселение, камень, керамика, кожа, дерево, металл, бумага, археология, храм.

Kirish. O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi tarixida yuksak iz qoldirgan, insoniyat ilk vakillarining dastlabki manzilgohlari ko'plab joylashgan[1], dunyo ilm-fanida yangi bilimlarga asos solgan, tarixiy-madaniy yodgorliklarga boy[2] hududlarni qamrab olgan. O'zbekistonning qadimiy Buxoro, Samarqand, Xorazm, Toshkent kabi hududlari jahon xalqlari tarixida o'z o'rnini va salohiyatiga ega bo'lgan va hozirda ham shunday. Xususan, Navoiy viloyati ham O'zbekiston va jahon tarixida muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Azim Zarafshon vohasida, behisob tabiiy boyliklar makoni bo'lgan Qizilqum mintaqasida joylashgan Navoiy viloyati, ta'bir joiz bo'lsa, mamlakatimizning duru javohirlar xazinasidir".[3] Mazkur hudud nafaqat hozirgi O'zbekiston balki, Markaziy Osiyoda ham muhim savdo yo'llari kesishgan, qulay tranzit va logistika imkoniyatlarini mujassam etgan, Buyuk Ipak yo'lining asosiy tarmoqlarini[4] birlashtirgan, shuningdek, Samarqand va Buxoro kabi yirik savdo-iqtisodiy va madaniyat markazlari oralig'idagi, ularni bog'lab turgan hudud bo'lgan qadimiy tarixga ega makon sifatida ma'lum. Xuddi shu omillar mazkur

hududning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim asos bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Boris Shalaton, A.Kabirov, M.Qosimov, T. Mirsatov, M.Xo'janazarov, B.Berdiyev, A.Sagdullayev, M.Xujanazarov, A.Hotamov, H.Bekniyozov, U.Narzullayev, S.Inoyatov kabi olimlarimiz Navoiy viloyatidagi arxeologik yodgorliklarini tadqiq etilishi masalalari bo'yicha salmoqli ishlar qilishgan, shuningdek, ularning ilmiy tadqiqotlaridan ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, Navoiy viloyatidagi arxeologik yodgorliklarini tadqiq etilishi masalalari hamda arxeologik ekspeditsiyalar natijasida tarixiy-madaniy yodgorliklarni o'rganishdagi tub o'zgarishlar va ularni restavratsiya qilish masalalari ochib berilgan.

Tahlil va natijalar. O'lkamiz hududi paleolit davridan boshlab odamlar yashagan hudud hisoblanadi. Qizilqum sahrosida paleolit davri odamlari yashagan manzilgohlar mavjud. Jumladan Quzilqumning Lavlakon-5, Oyg'og'itma chuqurliklarida paleolit odamlari yashagan. Ushbu joylardagi manzilgohlar o'tgan asrning 30-yillarida

sobiq SSSR FA arxeologiya instituti olimlari tomonidan o'rganila boshlangan. Birinchi katta arxeologik ekspeditsiyalar o'tgan asrning 40-yillarida uyushtirilgan. Bu arxeologik ekspeditsiyalar 1950, 1960, 1970 yillarda ham davom etgan. Shunday ekan, Navoiy viloyatida olib borilgan tarixiy madaniy yodgorliklarni o'rganishni shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin;

Birinchi bosqich 1950-1982 yillar, ikkinchi bosqich 1982-1990 yillar; uchinchi bosqich 1991- yildan hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Birinchi davrda vohada arxeologik, tarixiy-madaniy yodgorliklar lokallashtirilgan. Shu o'rinda ikkinchi bosqich davrining boshlanishini 1982 yildan deb belgilanishida Navoiy viloyatining tashkil topishi bilan bog'lanishini alohida ta'kidlash mumkin. Bu davrda aniqlangan obyektlarni maqsadli o'rganish ishlari tizimli olib borilgan. Uchinchi bosqichda esa arxeologik, tarixiy-madaniy yodgorliklarni o'rganishda tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu obyektlarni o'rganishda birinchi navbatda yangicha yondashuv, ikkinchidan esa hali o'rganilmagan obyektlarni aniqlash va mavjud obyektlarni turkumlashga katta e'tibor berildi, hamda baholandi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, madaniy-tarixiy obyektlarni o'rganish va ularni restavratsiya qilish orqali jamoatchilik e'tiboriga havola qilish kuchaydi. Viloyatdagi madaniy tarixiy obyektlarni turistik imkoniyatlarini o'rganish orqali iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotida munosib o'rinni egallashiga e'tibor berildi.

Navoiy viloyatidagi mavjud tarixiy-madaniy tarixiy yodgorliklarni o'rganish va ularni keng xalq ommasiga o'lasida targ'ib qilishda o'lkashunos Boris Shalatoninning faoliyatini o'rganish alohida o'rin tutadi. Shalatonin asli kasbi tarixchi bo'lib butun umrini Navoiy viloyatidagi tarixiy madaniy yodgorliklarni, mo'jizakor tabiiy tarixiy yodgorliklarni o'rganish va ularni keng xalq ommasiga targ'ibot-tashviqot qilishga bag'ishladi. Bu inson butun Qizilqum sahrosini kezib chiqdi, uning mo'jizaviy yodgorliklarini o'rganib qator ilmiy ommabop asarlarni yaratib keng xalq ommasiga e'tiboriga havola qildi.

Navoiy viloyati hududi insonlar qadimdan istiqomat qilgan makonlaridan hisoblanib, bundan qariyb yuz ming yillar muqaddam o'zlashtirilgani olimlar tomonidan isbotlangan. Mehnat qurollari va xo'jalik anjomlari uchun zarur bo'lgan tog' jinslari: chaqmoqtosh, kvars, ohaktosh va boshqa minerallarga boy konlarning mavjudligi, suv manbalari yetarli miqdorda borligi bu manzilni yashash uchun tanlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yana bir muhim tomoni shundaki, vodiyning ikki tomonida tog' etaklari, g'orlar, ungurlar, qoya osti kovaklari ko'p bo'lib, ular ibtidoiy odamlar uchun tabiiy boshpana vazifasini o'tagan. Zarafshon vodiysining tog' oldi hududlari va dashtlari faunasi juda boy bo'lgani uchun ibtidoiy odamlar bu yerdan barcha turdagi iste'mol mahsulotlarini topa olganlar.

Qadim So'g'diyona mintaqasida joylashgan hozirgi Navbahor tumani hududi Navoiy viloyatining qolgan hududlaridan qadimiyligi bilan ajralib turadi. Bu hudud Markaziy Osiyoda paleolit davrining o'rta va so'nggi bosqichi (miloddan avvalgi 100-40-12 ming yilliklar) davrlari ibtidoiy odamlar hayotida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birgalikda madaniy sohasidagi o'zgarishlar yuz berishi natijasida insoniyat sivilizatsiyasining muhim bir o'choqlaridan biriga aylandi. Qulay tabiiy-geografik sharoiti va mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun xomashyo resurslari serob bo'lgan mintaqalarda an'anaviy o'zlashtiruvchi xo'jalik sharoitida ham texnikaviy kashfiyotlar qilganlar.

Ana shunday kashfiyotlardan biri Qoratog' tog'ining janubiy yonbag'irlarida Uchtut qishlog'ida amalga oshirilgan. Bu yerda 1958 yil X.Muxamedov, 1959 yil A.Okladnikov, 1958-66 yillarda M.Qosimov, T.Mirsaatovlar rahbarligida qazishma ishlari olib boriladi. A.Muhammadjonovning

ta'kidlashicha, bu qadimiy hududda aholi o'rta tosh davri (Muste - miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar) bosqichidan boshlab yashab kelgan. Bunga dalil tariqasida Uchtut manzilgohida topib tekshirilgan o'rta tosh davri davri chaqmoqtosh sindirib olingan xom ashyo koni-sangbur, tosh qurollar yasash ustaxonasi va ibtidoiy odamlar makoni hamda yangi tosh (neolit) davri (miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar)da chaqmoqtosh bo'laklari kovlab olingan eng qadimgi makon "Uchtut shaxtasi"ning o'rni va lahmlarini keltirish mumkin[5].

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, texnik kashfiyotni, tog' sanoatining sir asrorlarini birinchi bo'lib, 1958 yilda arxeolog M.Qosimov arxeologik izlanishlar o'tkazib, Ijand va Uchtut qishloqlari yaqinida chaqmoqtosh ustaxonasi va chaqmoqtosh xom ashyosi "kon"larini kashf etdi. M.Qosimov o'rta va so'nggi paleolitning bosqichiga doir chaqmoqtosh paraqalari va uchqunlari topib tadqiqot ishlari boshlab berdi. Uchtut ustaxonasi uzoq davrlar davomida nafaqat o'rta va so'nggi paleolit, balki neolit davrida ham qurolsoz ustalarining birlamchi qurol yasash makoni sifatida mavjud bo'lgan. M.Qosimov T.Mirsaatov bilan birgalikda tadqiqot ishlari davom ettirib, 1958-1966 yillarda 13 ta shaxtani ochadilar. Konning umumiy maydoni 8000 m² bo'lib, shundan 1000 m² qazib o'rganilgan va 32 ta chaqmoqtosh koni ochilgan. Uchtut chaqmoqtosh konlari uchi torayib boruvchi o'ra shaklida (eni 95-110 sm dan 4- 5,5 metrgacha, chuqurligi 5-5,5 metrgacha) bo'lgan. Tog' jinslari qatlami boshlangach, 1-2 metr qolganda konlar 3-4 metrgacha kengayib borgan.[6] Uchtut chaqmoqtosh konlarining tuproq qatlamidan saqlanib qolgan qurol izlari shaxtalar qanday qurollar yordamida qazilganligini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu manzilgohda T.Mirsaatov 1967 yildan boshlab shaxta qazish ishlari yangi usul bilan olib borildi. O'tkazilgan eksperimental tajribalarga asoslanib, Uchtut va Ijand yodgorliklar kompleksi chaqmoqtosh xomashyosini topish uslubiga asoslanib, uch xil ob'ektlarga bo'lib o'rganadi[7].

Bundan qadimgi uchtutliklar konlarining ikkitasi xomashyoni qazib olish bilan bog'liq ishlar, uchinchisida esa, mehnat qurollarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan ustaxona ishlab turgani ma'lum bo'ldi.

Uchtut qadimgi shaxtalari majmuining topilishi va tadqiq etilishi olimlarimizga Navoiy viloyatining avval ma'lum bo'lmagan qadimgi tarixi haqidagi ma'lumotlarni aniqlashda imkon beradi[8].

Navoiy viloyatining qadimgi davr yodgorliklaridan yana biri Oyoqog'itma manzilgohi hisoblanadi. Oyoqog'itma manzilgohi Konimex tuman markazidan 80 km uzoqlikda joylashgan. Bu hududda XX asrning 70 yillarida olimlar tomonidan o'rganilgan boshlandi, ibtidoiy odamlarning o'ndan ortiq manzil makonlari aniqlangan[9].

Keyingi izlanishlar 1995 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti va Varshava tadqiqotlar universiteti yetakchi mutaxassislari bilan hamkorligida olib borilgan. Manzilgoh 1995 yilda O'zbekiston-Polsha xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan dala qidiruv ishlari natijasida aniqlandi va tadqiqot ishlari o'n yil davom etdi. Yodgorlikning qatlamlaridan bir qancha namunalar olindi. Oyoqog'itma makonining davriy xronologiyasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra yodgorlikning madaniy qatlamlari 7180±20dan to 4460±80 ming yilliklar bilan sanalandi[10].

2006 yilda K.Shimchak va M.Xo'janazarovlarning "Qizilqumdagi neolit davri makoni Oyoqog'itma va boshqa topilmajoylar" nomli monografiyasi nashrdan chiqarildi. Ushbu asarning asosiy maqsadi O'zbekiston-Polsha xalqaro ekspeditsiyasining janubiy-sharqiy Qizilqumning neolit davri bo'yicha 1995-1999 yillar va 2002-2003 yillarda olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijalarini taqdim qilishdan iborat bo'ldi. Bunda asosiy e'tibor ilk neolitga oid Oyoqog'itma

makonini tadqiqoti natijalariga qaratilgan. Unda ta'kidlanishicha, Oyoqog'itma makoni tadqiqi natijalari hududdagi ibtidoiy davrga oid qator muammolarga yangicha qarash imkonini beradi.

O'zRFA Arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi Grechkina Tatyana Yurevna va Varshava universiteti professori Karol Shimchak rahbarligida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra bu yerda ibtidoiy odamlarning sodda (primitiv) mehnat qurollari, o'choq qoldirlari, sopol buyumlari siniflari topib o'rganilgan. Arxeologlarning fikrga ko'ra mazkur manzilgoh yoshi 5-5,5 ming yilni tashkil etadi. Manzilgohning xarakterli tomoni shundaki, bu yerdan ko'plab mayda buyumlar topilgan bo'lib, ular kamon va gapun uchlari, o'tkir tishli mehnat qurollari yasashda foydalanishgan. Shuningdek, manzilgohdan kesuvchi, arralovchi hamda hayvon terisiga ishlov beruvchi chaqmoqtoshdan ishlangan tosh qurollari ham topilgan. Mehnat qurollari tayyorlash uchun zurrur bo'lgan chaqmoqtosh esa manzilgoh shimolida joylashgan, uzoq bo'lmagan shaxtalardan olishgan. Tosh qurollari yasashda dastlabki ustaxona bo'lgan. O'zbek-Polyak qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan Oyoqog'itma makoni noyob yodgorliklardan biri hisoblanadi. Yodgorlikni o'rganish ishlari 2005 yildan O'zbekiston-Fransiya qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan davom ettiriladi.[11] Natijada, Oyoqog'itma makoni ilk neolitga oid qatlamlarining ko'p sonli tosh industriyalarini zamonaviy tipologik, morfologik va texnologik uslublar yordamida tadqiq qilina boshlandi.

Bugungi kunda O'zbekistonning tog'lik va tog' oldi hududlaridan 100 dan ortiq qadimiy qoyatosh suratlari bo'lgan joylar mavjud. Shulardan biri bo'lgan Sarmishsoy qoyatosh yodgorligi o'zining mazmuni, mavzusi, uslub xususiyatlari va tuzilishiga ko'ra rang barangligi dunyoda e'tirof etilgan.

Qoyatoshlarda Zarafshon vohasidagi boy hayvonot dunyosi va ajdodlarimizning ilk tasviriy san'at namunalari tasvirlangan. Ajdodlarimiz tomonidan qoyatoshlarga o'yib bitilgan bu ajoyib yodgorliklar kelajak avlodga yurtimiz tarixining eng qadimgi davr tarixidan bayon etadi.

Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari X.Muhammedov tomonidan 1958 yil aniqlangan.[13] Sarmishsoy Qoratog'ning janubiy yon bag'rida, Navoiy shahridan 40 chaqirim uzoqlikda joylashgan. Sarmishsoy shimoli-sharqiy tomondan Oqtog' tizmasining qisqa adir va qirliklari bilan tutashib ketgan. Tabiati mo'tadil iqlim mintaqasi bo'lib tog'lik hudud hisoblanadi. Bu petrogliflarni birinchi bo'lib N.Toshkentboev ilmiy tadqiq etdi[14].

1969 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti qoshida A. Kabirov boshchiligidagi respublika qoyatosh rasmlarini o'rganish maxsus otryad tuzilgan. Bu otryad 1969-1972 yillarda Sarmishsoyning o'rta qismida 6-7 kmli masofada uning asosiy rasmlari joylashgan qismini o'rgangan. Dala ishlari vaqtida Qoratog' oralig'idagi Tongotar, Bironsoy, G'o'rtut (Go'rtut), Qilichlik, Toytuyoq, Qoracharvoq, Umartol, Otchopgan va Naychaliksoy daralaridan qadimiy qoyatosh suratlarning yangi-yangi maskanlari topib, tekshirilgan va o'rganilgan. Arxeolog A.Kabirov Sarmishsoy qoyatosh tasvirlarini batafsil atroflicha tadqiq qildi. A.Kabirovning bu yerda o'tkazgan bir necha dala mavsumlarida olib borgan ilmiy izlanishlari tufayli eng qadimgi odamlar, ularning mashg'ulotlari, boy hayvonot dunyosi, bir qator diniy, afsonaviy va turli xil rasmlardan

iborat 3 mingdan ortiq tasvirlar o'rganildi. Uning "Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari", A.Sagdullayev bilan hammualliflikdagi "O'rta Osiyo arxeologiyasi" va bir qator ilmiy asar va maqolalarida ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijalari o'z aksini topdi. Bu izlanishlar tufayli Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari keng jamoatchilikka ma'lum bo'ldi. Olim izchil ravishda har bir qoyatosh tasviriga izoh berdi. Uning tadqiqotlari asosida "Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari" nomli arxeologiya, san'at tarixi uchun qimmatli ilmiy tadqiqot natijasi bo'lgan monografiya chop etildi. Monografiya uzoq yillar davomida Sarmishsoyni chuqur va atroflicha tahlil qilish, dunyoning boshqa qoyatosh tasvirlarini qiyosiy o'rganish asosida yuzaga kelgan. Bu kitobning qimmatli shundaki, Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari ilk bor batafsil ilmiy asosda tavsif qilindi.

Sarmishsoy tasvirlarini o'rganishni maqsad qilib qo'ygan va o'ttiz yildan ko'proq vaqt uni tizimli o'rgangan o'lkashunos B.Shalatonin faoliyati diqqatga sazovordir. O'lkashunos B.Shalatonin 1960 yildan boshlab o'z tashabbusi bilan faol Navoiy viloyati tarixi, tabiati, geografiasini tadqiq eta boshlagan. 1961 yil bahorida B.Shalatonin rahbarligidan o'quvchi o'lkashunoslar tomonidan Sarmish darasida qadimiy petrogliflarni o'rganilishi o'lka tarixini o'rganishda yangi sahifani ochib berdi. Natijada Sarmishsoy tasvirlariga bag'ishlangan qator ilmiy ommabop maqolalar respublika, viloyat, Navoiy shahar gazetalarida paydo bo'ldi. Uning barcha tadqiqotlari "Qizilqumning mingdan bir mo'jizasi"[16] nomi bilan chop etildi.

Keyingi yillarda Sarmishsoydagi qoyatosh suratlari o'rganishda arxeologiya, antropologiya, zoologiya, geofizika tajribalaridan foydalanilgan holda yangi hozirgi zamon fan usullaridan foydalanilgan holda tadqiqot olib borilmoqda. M.Xo'janazarov Sarmishsoy qoyatosh tasvirlarini XX asrning 60 yillardan boshlab o'rganib keldi.[17] Mutaxassis tomonidan Sarmishsoyda ilgari ma'lum bo'lmagan 66 ta qoyatosh suratlari aniqlanib, atroflicha o'rganildi. Uning izlanishlari tufayli Sarmishsoy manzilgohini o'rganishda oldinga tashlangan yana bir qadam bo'ldi.

Hozirgi kunda Sarmishsoy merosini avlodlarga qoldirish uni asrab avaylash borasida, YUNESKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritish masalalarida ko'plab ishlar olib bormoqda. Sarmishsoy nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi dunyo fan olamidagi alohida va turli-tuman petroglifli qoyatosh suratlari o'zida jamlagan noyob tarixiy meros hisoblanib, dunyo olimlari nigohini o'ziga rom qilgan tarixiy ob'yekt hisoblanadi. Navoiy shahrida 2004 yilda Xalqaro arxeologik ekspeditsiya Sarmishsoyni o'rganishga kirishdilar. 2004 yil 9-10 oktabr kunlari "Sarmishsoy tabiiy tarixiy va madaniy merosini asrab avaylash va uni o'rganishning yangi qirralari" mavzusida ilmiy konferensiya bo'ldi. Bu Sarmishsoyni o'rganishdagi yangi bosqich bo'ldi.[18]

Xulosa va takliflar. Tarixni ilmiy tadqiq etish asosida o'lkamizda ajdodlarimizning ongu tafakkuri bilan yaratilgan osori atiqalar, noyob qoyatosh tasvirlari, qadimgi manzilgohlarni tarixiy davrini aniqlash, o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy viloyatidagi arxeologik yodgorliklarini tadqiq etilishi ularni davlat muxofazasiga olish, bugungi kundagi holati, ro'yxatga olingan arxeologik yodgorliklarni saqlab qolish, Butunjahon madaniy meros obyektlari, qolaversa YUNESKO ro'yxatiga kiritishga ularni asrab avaylash va kegusi avlodga yetkazishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Мирсаатов Т. М. Древние шахты Учтута. – Ташкент: Фан, 1973. - С.108
2. Кабиров А. Сармишсой қоя тош тасвирлари. – Тошкент: Фан, 1976; Хужаназаров М. Древнейшие наскальные изображения Сармишсай. История материальной культуры Узбекистана. Вып.32. 2001. - С.24-30.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 111.
4. Хотамов А., Бекниёзов Н. Кармана - қадимий диёр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. - Б.5.

5. Иноятов С., Ҳайитова О. Кармана тарих қўзғусида. -Т.: Шарқ. 2006 йил.-Б.20-21.
6. Облақулов Ғ. Навбаҳор тумани.(тарихий, иқтисодий, ижтимоий тиббий, маърифий, жуғрофий, адабий маълумотлар).-Т.:Абу Али ибн Сино.2000 йил.-Б.15
7. Джуракулова Д. Зарафшон водийсининг тош ва бронза даври маданияти.-Т.: Фан.2011.-Б.39-40.
8. Бердиев Б. Навоий вилоятининг тарихий манзилгоҳлари.-Т.: Мухаррир. 2008 йил.-Б.8
9. Навоий вилояти Конимех ўлкашунослик музейи материаллари.
10. Szymezak K., Khudzhazarov M. Excavation in Ayakagytma the site, Se Kyzil-Kum, Uzbekistan. Season 1999 // General Rappot. Varsovie-Samarcande, 2004. –P. 1-100
11. Brunet F, The Techhique of Pressure Knapping in Central Asia: Innovation of Diffusion // The Emergence of Pressure Blade Knapping. From Orgin to Modern Experimentation: Springer-Verlag, Heidleberg, 2012. – P.308-328
12. Хошимов Х. Оёқоғитма макони - илк неолит даври тош индустрияси. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.Самарқанд, 2019 йил. -Б.20
13. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 32 – нашри. –Т.: Фан, 2001.–Б 24.
14. Знамя дружды. Сармишсай музей под открытом небом. 2004 г 8 октябрь.
15. Кабиров А., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: 1976. – Б 98.; Кабиров А. Наскальные ижебражения Сармишсая.ИМКУ. вып 9. -Т., 1972.; Кабиров А.Есипова Т.В.Следы древного человека в Каратау. Труды ЧГЛГЗ. вып. 3.- Т., 1972.
16. Шалотонин Б. Тени на скалах. -Т.: 1999.; Шалотонин Б.Қизилқумнинг мингдан бир мўжизаси. -Навоий. 1997.
17. Хўжаназаров М. Наскальные ижебражения Сармишсая.ОНУ. № 4 – 5, 1998
18. Narzullayev U., Mustafoyev J. Sarmishsoyning sehirlri qoyatosh tasvirlari. - Toshkent: “Nishon-noshir” nashriyoti, 2015. - B.13.